

STATISTIKA VA STATISTIK MA'LUMOTLARNING IQTISODIYOTDA  
TUTGAN O'RNI

Toshtemirov Muhammad

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

dotsent, **Shakirova Nigora Axralovna**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Statistika va ekonometrika kafedrası

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdá statistika va statistik ma'lumotlarning mamlakat iqtisodiyotining o'sishi va rivojlanishidagi, hamda mamlakatning iqtisodiy holatini yuqori pog'onaga ko'tarishidagi ahamiyati keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiyot, statistika, statistik ma'lumotlar va ularning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyatligi.

**Abstract:** In this thesis, the importance of statistics and statistical data in the growth and development of the country's economy and in raising the economic status of the country to a higher level is mentioned.

**Key words:** Economics, statistics, statistical data and their importance in the country's economy.

**Аннотация:** В данной тезис отмечается значение статистики и статистических данных в росте и развитии экономики страны и в поднятии экономического статуса страны на более высокий уровень.

**Ключевые слова:** Экономика, статистика, статистические данные и их значение в экономике страны.

Mamlakatimiz Prezidenti muhtaram Shavkat Mirziyoyev faoliyatining boshlang'ich yillaridanoq yurtimizning iqtisodiy holatini yaxshilash va jahon hamjamiyatining oldidagi nufuzini ko'tarish uchun say-harakatlarni boshlab yubordi. Buning isboti o'laroq biz "Harakatlar strategiyasining" besh ustuvor yo'nalishidan biri "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish" yo'nalishini misol qilishimiz mumkin. Statistika to'g'risida gap ketar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.08.2020 dagi PQ-4976 sonli qarorini eslatib o'tish joizdir. Ushbu qaror "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari" deb nomlangan bo'lib, bunda prezidentimiz mamlakatimizda statistika ma'lumotlarining sifati va ishonchliligini oshirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilib, bo'lib o'tayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, jumladan xalqaro tashkilotlarning maxsus nashrlari va ma'lumotlar bazalarida xolis va ishonchli aks ettirishni ta'minlash choralari ko'rish uchun ko'rsatmalar berib o'tgan edi. Shu bilan birga, statistika ma'lumotlari sifatini yanada yaxshilash, statistika ko'rsatkichlarining to'laqonli ma'lumot bazalarini yaratish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sohalarida statistikaning zamonaviy usullarini joriy etish zarurati ham mavjud. O'zbekiston Respublikasida Statistika agentliging [www.stat.uz](http://www.stat.uz) sayti mavjud va bu saytda ochiq ma'lumotlar berib boriladi.

Iqtisodiyot tushunchasiga turli xil ta'riflar berib o'tilgan. Umumiy ma'noda xizmatlarni iste'mol qilish sohasini o'rganish sohasidir. Umuman olganda, u tanqis bo'lgan resurslarni

ishlab chiqarish, ishlatish va boshqarish bilan bog'liq amaliyotlar, nutqlar va moddiy ifodalarni ta'kidlaydigan ijtimoiy soha sifatida belgilanadi. Muayyan iqtisodiyot - bu asosiy omillar sifatida uning madaniyati, qadriyatlari, ta'limi, texnologik evolyutsiyasi, tarixi, ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzilishi, huquqiy tizimlari va tabiiy resurslarini o'z ichiga olgan jarayonlar to'plamidir. Bu omillar ma'no-mazmunni beradi va iqtisodiyot sharoit va parametrlarni belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy soha — bu o'zaro bog'liq bo'lgan inson amaliyotlari va operatsiyalarining ijtimoiy sohasi bo'lib, u bir necha sohalar bilan chambarchas bog'liqdir.

Statistika matematikadan, axborot-tahlilidan va ma'lumotlar bilan ishlashning boshqa sohalar bilan birga, ma'lumotlar to'plash, tahlil qilish, tushuntirish va namoyish etishni o'rganadigan ilm fanlari shaklidan iboratdir. Statistikaning asosiy maqsadi, bizni atrof muhitimizda sodir bo'lgan hodisalarni ma'lumotlar yordamida tushuntirishdir va ular haqida prognozlar uchun ma'lumotlar berishdir. Bu ijtimoiy fanlar, iqtisodiyot, tabiiy fanlar, sog'lik, va biznes kabi turli sohalarda ishlatiladi.

Statistik ma'lumotlar mamlakat iqtisodiyoti uchun juda ham ko'plam muhim ahamiyatlarga ega va muhim bir vositadir. Birinchi muhim jihati bu, qaror qabul qilishda asos vazifasi: Statistik ma'lumotlar, iqtisodiyot sohasidagi qaror qabul qilish jarayonida katta ahamiyatga ega. Hukumatlar, korporatsiyalar va boshqa iqtisodiy tashkilotlar statistik ma'lumotlar asosida moliyaviy siyosat, investitsiyalar va boshqa strategiyalarni belgilaydilar.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishni tahlil qilish: Statistik ma'lumotlar, iqtisodiy faoliyatni tahlil qilishda katta yordam beradi. Bu ma'lumotlar orqali mamlakatdagi ishlab chiqarishni, moliyaviy faoliyatni va ishtirokchilar darajasini o'rganish mumkin. Ishlab chiqarishda va iste'molchilar ehtiyojini qondirishda iqtisodiyotning eng dolzarb muammosi bo'lgan resurslarning cheklanganligi va ehtiyojlarning cheksizligini nisbatan hal qilishda va resurslarni oqilona taqsimlashda statistik ma'lumotlar muhim sanaladi.

Keyingi muhim jihat bu iqtisodiy ko'rsatkichlar: Statistik ma'lumotlar, mamlakat iqtisodiyotining holatini oshirishda va o'zgarishlarni ta'lim etishda asosiy manba hisoblanadi. Barcha taraflar uchun foydali bo'lgan kelajak prognozlarini tuzishda va ijtimoiy sohaga moliyaviy hisobotlar tuzishda yordam beradi.

Keyingi o'rinda moliyaviy rivojlanishni aniqlash: Statistik ma'lumotlar, mamlakatda moliyaviy rivojlanish darajasini aniqlash uchun muhimdir. Bu ma'lumotlar, mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha chora-tadbirlarni rivojlantirish va investitsiyalar uchun yo'nalish belgilashda muhim qarorlarni olishda yordam beradi.

Iqtisodiy stabillik: Statistik ma'lumotlar, iqtisodiyotni boshqarishning muntazamlilik va nazoratni ta'minlashda yordam beradi. Uzluksiz statistik ma'lumotlar, mamlakatdagi moliyaviy, iqtisodiy, va ijtimoiy o'zgarishlarni ko'rib chiqishda va uning ustuvor yo'nalishlarni aniqlashda yordam beradi.

Statistik ma'lumotlarning demografik bo'limi mamlakat uchun juda muhim. Unda aholi jon boshiga tushadigan YAIM, YAMM hisoblanishi va bir qancha foydali ishlar amalga oshirilishi mumkin. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasida aholi soni 2024-yil 22-aprel holatiga ko'ra 37 millionlik dovondan oshganini eslatib o'tish lozimdir.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat iqtisodiyotida statistika va statistik ma'lumot, analizlar muhim ahamiyatga egadir. Ularning ahamiyatli jihatlarini yuqorida ko'rib chiqdik.. Ular,

moliyaviy boshqaruvni samarali olib borish, iqtisodiy rivojlanish va investitsiyalar uchun ma'lumotlar taqdim etish va biznes va investitsion faoliyatlarida ishonch yaratishda, ishlab chiqarish va resurslar to'g'ri taqsimlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning PQ-4947 va PQ-4796 qarorlari. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. "Principles of Economics" by N. Gregory Mankiw, 9<sup>th</sup> chapter
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidenting qarori, 03.08.2020 yildagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida
4. Toshkent moliya instituti veb sahifasi [www.tfi.uz](http://www.tfi.uz)